

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
<b>B.Q.Qurbanova</b>	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar ....	22
<b>S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov</b>	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni .....	27
<b>G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova</b>	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
<b>Sh.A.Ro'zaliyev</b>	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari .....	40
<b>A.R.Abdullayeva</b>	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili .....	43
<b>N.U.Alijonov</b>	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
<b>M.Y.Atadjanov</b>	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili .....	54
<b>N.N.Ahmadjonov</b>	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
<b>M.A.Djalalova</b>	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili .....	65
<b>N.A.Ergasheva</b>	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
<b>Sh.K.Mamajonova</b>	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish .....	73
<b>D.M.Mo'minov</b>	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish .....	81
<b>D.M.Nuralieva</b>	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	87
<b>R.S.Nuriddinov</b>	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
<b>M.J.Rajabov</b>	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili .....	96
<b>F.S.Soliyev</b>	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
<b>Sh.A.Usmonov</b>	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli .....	106
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari .....	111
<b>G.S.Yunusova</b>	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili .....	116
<b>M.S.Zakirova</b>	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni .....	121
<b>H.A.G'anieva</b>	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
<b>Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов</b>	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA .....	134

**YOLG'IZLIK HISSINING IFODALANISH XUSUSIYATLARI****ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА****FEATURES OF THE MANIFESTATION OF LONELINESS****Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Yolg'izlik jamiyatning barcha ijtimoiy tizimlariga xos ko'p o'lchovli hodisa bo'lib, uning nazariy tadqiq etilishi qadimgi ildizlarga borib taqaladi. Yolg'izlikni tahlil qilishning murakkabligi mazkur hodisaniнg ikkiyoqlamaliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, inson mavjudligining qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan individual hamda ijtimoiy qobig'i yolg'izlik hissining refleksiyasidan kelib chiqadi. Bu borada g'oyalar, fikr-mulohazalarning rang-barangligi ijtimoiy psixologiya fani negizida mazkur hodisaga oid izlanishlarning keng qamrovli yo'nalishda olib borilishini talab qiladi. Shu maqsadda talabalarning tasavvurlarida subyektiv yolg'izlik hissini o'rganish uchun empirik tadqiqot o'tkazdir. Mazkur maqolada tadqiqotimiz bo'yicha olib borilgan ishlarning natijalari tizimli ko'rinishda tahlil qilib berilgan. Tadqiqotda D.Rassel, L.Peplo va M.Fergyusonlar tomonidan ishlab chiqilgan "Yolg'izlikni subyektiv his qilishni o'rganish metodikasi" qo'llanildi. Respondentlardan olingen natijalarga ko'ra, talabalar yolg'izlik hissining xususiyatlari sifatida obyektiv, subyektiv, tashqi, ichki hamda vaziyatga bog'liq ravishda ifodalanadigan xususiyatlarini ahamiyatli deb hisoblashlari aniqlandi. Bu talabalarning ontogenetik taraqqiyot jihatidan olganda kuch-quvvatga to'la yoshda ekanligi, inson tabiatida ro'y beradigan hissiy holatlarni oqilona baholashlaridan dalolat beradi. Bu esa talabalarning yolg'izlik hissini vaziyatga bog'liq holda ongli ravishda tanlaydilar yoki inkor etishini ifodalaydi.*

**Аннотация**

Одиночество многомерное явление, присущее всем социальным системам общества, теоретическое изучение которого восходит к древним корням. Сложность анализа одиночества определяется двойственностью данного явления. То есть индивидуальная, а также социальная оболочка человеческого существования, полная противоречий, проистекает из рефлексии чувства одиночества. Разнообразие представлений на эту тему требует широкого направления исследований данного явления на основе социальной психологии. С этой целью мы провели эмпирическое исследование, чтобы изучить субъективное чувство одиночества в среде студенческой молодежи. В данной статье систематически анализируются результаты проведенной работы по нашему исследованию. В исследовании применялась методика «Изучения субъективного чувства одиночества», разработанная Д.Расселом, Л.Пепло и М.Фергюсоном. По результатам опроса респондентов установлено, что значимыми студенты считают объективные, субъективные, внешние, внутренние и ситуативно выраженные особенности чувства одиночества. Это свидетельствует о том, что студенты находятся в возрасте, полном сил с точки зрения онтогенетического развития, они рационально оценивают эмоциональные состояния, происходящие в человеческой природе. Следовательно студенты сознательно выбирают или отрицают чувство одиночества в зависимости от ситуативных стимулов.

**Abstract**

*Loneliness is a multidimensional phenomenon inherent in all social systems of society, the theoretical study of which goes back to ancient roots. The complexity of the analysis of loneliness is determined by the duality of this phenomenon. That is, the individual as well as the social shell of human existence, full of contradictions, stems from the reflection of a sense of loneliness. The variety of ideas on this topic requires a wide range of research on this phenomenon based on social psychology. To this end, we conducted an empirical study to examine the subjective feeling of loneliness among students. This article systematically analyzes the results of the work carried out on our research. The study used the technique of "Studying the subjective feeling of loneliness", developed by D.Russell, L.Peplo and M.Ferguson. According to the results of the survey of respondents, it was found that students consider objective, subjective, external, internal and situationally expressed features of loneliness to be significant. This indicates that students are at an age full of strength in terms of ontogenetic development, they rationally assess the emotional states occurring in human nature. Consequently, students consciously choose or deny the feeling of loneliness depending on situational stimulus.*

**Kalit so'zlar:** yolg'izlik hissi, talabalar guruhi, emotsional komponent, kognitiv komponent, ijtimoiy komponent**Ключевые слова:** чувство одиночества, студенческая группа, эмоциональный компонент, когнитивный компонент, социальный компонент**Key words:** loneliness, student group, emotional component, cognitive component, social component

## KIRISH

Respublikamizda yoshlar psixologiyasini bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganish, tadqiq va tahlil qilishga alohida urg'u berilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston yoshlari Forumida so'zlagan nutqida [7] ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash zarur ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shu jihatdan talabalarning ruhiy va intellektual rivojlanishi uchun to'sqinlik qiladigan hissiy-emotsional holatlarining o'rganilishi dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

Yolg'izlik muammosi sotsiologiya, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik, pedagogika, tibbiyot va dinshunoslik kabi insoniyat taraqqiyotini ifodalaydigan fanlarning o'rganish obyektiga kiradi. Ularning har biri yolg'izlik muammosini o'z fanining tadqiqot doirasidan kelib chiqqan holda tahlil qiladi va yangidan-yangi konseptual jihatlar bilan boyitishga urinadi. Shu bilan bir qatorda ta'kidlash joizki, mazkur muammoning nazariy hamda amaliy tomonidan ishlab chiqilishi ijtimoiy psixologiya doirasida dolzarblilikni kasb etadi, chunki yolg'izlik hissi insonlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarga bevosita taalluqli hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda "yolg'izlik" tushunchasining mazmun-mohiyatini to'la ochib berish muhim ekanligini ta'kidlash joiz.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonlik olimlarining muayyan ilmiy izlanishlarda mazkur muammoga e'tibor qaratilgan. Jumladan, V.M.Karimovaning shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rniq bag'ishlangan izlanishlarida har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, tashvish hislarini keltirib chiqarishi kabi masalalari tahlil etilgan [2]. G.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov, U.D.Qodirov, B.M.Umarov, G.Q.To'laganova, T.G.Sulaymonovalarning izlanishlarida [8] yolg'izlik hissi bo'yicha asosan bolalik va o'smirlik davridagi psixik xususiyatlarni o'rganilgan. Ularda asosiy e'tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, suitsid, o'z-o'ziga baho berish va nazorat qilish muammolarining kelib chiqishida yolg'izlik hissining ta'siri masalalari muayyan ma'noda yoritilgan. Bundan tashqari A.B.Sabirova tadqiqotlarida [6] ontogenezning oxirgi bosqichlarida insondagi subyektivlilik va emotsiyonal sohaning o'ziga xos xususiyatlari yolg'izlik bilan bog'lab o'rganilgan bo'lsa, N.Z.Rasulova o'z tadtqiqotlarida [5] qayta nikohga kirish motivatsiyasining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari ikkinchi darajali nikohga kirish motivi yolg'izlik hissidan qutulish ekanligini aniqlagan. N.Sh.Mullaboyevaning tadqiqotlari yolg'izlik muammosi profilaktikasi va korreksiyasiga bag'ishlangan bo'lib, u o'smirlarda o'z yolg'izligini anglash; salbiy hissiy kechinma; deprivatsion omilning mavjudligi, begonalashish kabi masalalarni aniqlashtirishga yo'naltirilgan [4].

XX asrning 90-yillardan boshlab yolg'izlik hissini tadqiq etish Sobiq Ittifoq psixologlarining bir qator ilmiy ishlarida o'z aksini topa boshlagan. Jumladan, G.M.Tixonov "Yolg'izlik-tanholik" juft tushunchalarini qutbiy mazmunda tahlil qiladi. "Yolg'izlik" atamasи tahqirlangan, tashlab ketilgan, bir-biridan ajralgan, kommunikativ ojizlikni bildiradi, ya'ni jamiyatdan istisno qilingan sharoitda-subyektiv kechinmalar belgisidir. "Tanholik" atamasini subyektiv his-tuyg'u sifatida insonning obyektiv tarzdagi o'zgalardan jismonan uzoqlashishi, deb urg'u beradi muallif [8].

D.A.Mateyev ikki juft tushunchalar "Yakkalanish-yolg'izlik" va "Tanholik-yolg'izlik" tushunchalarini antinomiyalar, ya'ni to'g'ri deb qabul qilingan ikki holat o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik, deb ataydi. Olimning yozishicha, "Yakkalanish" subyektning atrofidagi qurshovdan majburan uzilishi, o'zgalardan jismoniy uzoqlashishidir. Agar "Yakkalanish" tashqi tomonidan namoyon bo'ladigan majburiyat bo'lsa, "Yolg'izlik" ichki subyektiv kechinma. "Tanholik" esa vaqtinchalik yuzaga keladigan kommunikatsiyaning uzilishi va u jamiyatning bir qismi sifatidagi individning muayyan maqsadlarini amalga oshirishdagi muvaffaqiyatini belgilaydi [8].

Yolg'izlik doimiy muloqotning buzilishi, insonning atrof-muhitdan og'riqli uzilishi, o'z olamiga o'xshamasligini anglashidir. Mazkur tahlil fanga G.I.Kolesnikova tomonidan kiritilgan bo'lib, u "Yolg'izlik"ni ekzistensial mazmun-mohiyatdan yiroq bo'lgan og'riqli holat deb ataydi [3].

Ye.N.Zavorotnix yolg'izlikni turli ijobiy va salbiy hissiyotlar, emotsiyalarni yuzaga keltiradigan subyektiv kechinma, deb ataydi. Muallif yolg'izlikning aniqlashtiruvchi mezonlarini ko'rsatib o'tadi. Ular: yolg'izlik hissi namoyon bo'lish kuchining subyektiv bahosi; individ tomonidan yolg'izlikning tan olinish darjasи; yolg'izlikning emotsiyonal ko'rinishi. Tadqiqotchi yolg'izlik hissining turlarini ham farqlaydi, ya'ni: inkor qilinuvchi yolg'izlikda shaxs yolg'izlik kechinmasiga e'tibor qilmaydi; qulay yolg'izlik orqali shaxs o'z hayotida muvaffaqiyatga erishadi; destruktiv yolg'izlikda inson yolg'izlik kechinmasini tiklashga harakat qiladi [8].

## PEDAGOGIKA

N. Ye.Pokrovskiy va G.V. Ivanchenkolar “yolg‘izlik” tushunchasini serqirra ta’rifu-tavsiflarga ega bo‘lgan atama sifatida unga “o‘ta ekzistensial moddiy xarakterga ega” bo‘lganligi uchun universal ta’rif berish mumkin emas, deb tan oladilar [1].

Yolg‘izlik fenomeni xorijda D. Rassel, K.Rodjers, Dj. Yang, K. Boumen, E.Dyurkgeym, R.Merton, A. Maslou, D. Rismen, A. D. Yelyakov, A. Kamyu, J.Lipovetski, E. Fromm, V. Veys, K.Solano, R. Fridmen, Y.D. Babayeva, S. Grof, E.Klyaynenberg, G.Zilburg, F.Fromm-Reyxman, Garri S. Sullivan, K. Mustakas, B. Miyuskovich, Lititsiya E. Pepla, U. Sadler, S. N. Solovyev, N.A. Berdyayev, YE.N.Trubetskiy, I. A. Ilin, Dj. Flanders, D.Bernshteyn, Ye.Roy kabi olimlar tomonidan talqin etilgan [8]. Ushbu mualliflarning aksariyat asarlarida yolg‘izlik muammosi yoshlarda zarur ijtimoiy ko‘nikmalarning yo‘qligi nuqtai nazaridan bayon etilgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Tadqiqotda D.Rassel, L.Peplo va M.Fergyusonlar tomonidan ishlab chiqilgan “Yolg‘izlikni subyektiv his qilishni o‘rganish metodikasi” (yolg‘izlikni o‘lchashning modifikatsiyalashtirilgan shkalasi) qo‘llanildi. Metodika orqali talabalar yolg‘izlikni qay darajada his qilishlarini aniqlashga yo‘naltirdik. Respondentlardan olingan natijalar matematik va statistik jihatdan ishlab chiqildi hamda jadvallar va diagrammalar ko‘rinishiga keltirildi.

**1-jadval****“Yolg‘izlikni subyektiv his qilishni o‘rganish metodikasi” natijalari**


Daraja	Yuqori		
Shkala 65	Emotsional komponent	Kognitiv komponent	Ijtimoiy komponent
Yigitlar	50	37,50	12,50
Qizlar	9,52	71,43	19,05
Shahar	37,5	37,5	25
Qishloq	0	92,3	7,7

Olingen natjalarga ko‘ra, yuqori darajadagi emotsional komponentdagi o‘lchamda talaba-yigitlarda o‘rtalari arifmetik qiymat 50 ni, talaba-qizlarda esa bu ko‘rsatkich 9,52 ga teng ekanligi ko‘rinib turibdi. Har ikkala jins vakillarida o‘rtacha arifmetik qiymat bir-biri bilan katta farq qiladi, bunda talaba-yigitlarda yuqori talaba-qizlarda esa past ko‘rsatkichga ega. Natjada talaba-yigitlar talaba-qizlarga qaraganda o‘zlarini emotsional jihatdan yolg‘iz his qilishlari aniqlandi. Bundan ular ko‘proq kuyunadilar, yolg‘izlik ularga salbiy ta’sir etadi. Shaharlik talabalar emotsional jihatdan ko‘proq yolg‘izlikka moyil bo‘lar ekanlar. Qishloq sharoitida yashaydigan yigit-qizlarda esa emotsional komponent ustuvor emas.

Yuqori darajadagi kognitiv komponent bo‘yicha o‘rtalari arifmetik qiymat talaba-yigitlarda 37,5 va talaba-qizlarda 71,43 ga teng. Ular talaba-yigitlarga qaraganda o‘zlarini kognitiv jihatdan yolg‘iz his qilishlari aniqlandi, ya’ni ular o‘zlarini ko‘proq yolg‘izliklarini anglaydilar. Shuningdek ushbu ko‘rsatkich hududiy farq nuqtai nazaridan ham bir xil natijani ko‘rsatdi.


Yuqori darajadagi o‘rtalari arifmetik qiymat ijtimoiy komponent bo‘yicha talaba-yigitlarda 12,5 ni, talaba-qizlarda 19,05 ni tashkil etdi. Talaba-qizlar o‘zlarini ijtimoiy jihatdan yolg‘iz his qilishlari aniqlandi. Ular guruh a’zosi bo‘lishga, guruh ularni qabul qilishlariga kuchli ehtiyoj sezishadi, bu ularning ijtimoiy yolg‘izliklarida namoyon bo‘ladi. Shaharlik talabalar ijtimoiy jihatdan ko‘proq yolg‘izlikka moyil bo‘lar ekanlar. Qishloq sharoitida yashaydigan yigit-qizlarda esa ijtimoiy komponent ustuvor emas.

Navbatdagi ishimizda natjalarni foiz ko‘rsatkichlarini diagrammada ifodalashga urindik.



1-rasm. "Yolg'izlikni subyektiv his qilishni o'rganish metodikasi" natijalarining jinsiy farq bo'yicha ko'rsatkichlari

Diagrammadan ko'rinish turibdiki, yuqori darajadagi emotsional komponent talaba-yigitlarda ustuvor, yuqori darajadagi kognitiv komponent esa talaba-qizlarda ustuvor ekanligidan dalolat bermoqda. O'rta darajadagi esa kognitiv komponent ikkala jins vakillarida nisbatan teng ko'rsatkichga ega.



2-rasm. "Yolg'izlikni subyektiv his qilishni o'rganish metodikasi" natijalarining hududiy farq bo'yicha ko'rsatkichlari

Diagrammada ifodalanganidek, yuqori va o'rta darajadagi kognitiv komponent qishloq hududida istiqomat qiladigan talabalarda ustuvorlikka ega. Demak, shaharlik talabalar bu borada kamroq yolg'izlikni his qiladilar.

## 2-jadval

### "Yolg'izlikni subyektiv his qilishni o'rganish metodikasi" bo'yicha jinsiy va hududiy farqlarga oid natijalar

Farq	n	O'rtacha	Dispersiya	t
Yigitlar	20	54,74	43,43	1,99*
	64	52,09	27,89	

## PEDAGOGIKA

Shahar	54	52,4	38,9	-0,6
Qishloq	30	53,2	20,97	

Izoh: p<0,05

2-jadvaldan talabalarning yolg'izlikni subyektiv his qilishlari jinsiy farqqa ega ekanligi ko'rinib turibdi. Ya'ni talaba-yigitlar ichki yolg'izlikni his qilishlari kuchliroq namoyon bo'lar ekan, talaba-qizlarda esa biroz tashqi yo'nalishga ega. Yolg'izlikni his qilishlari talabalarning emotsiyonal, kognitiv va ijtimoiy komponentlarga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Shuningdek, talabalik davrida yolg'izlikning his qilinishi refleksiyaning shakllanishi, o'z-o'zini anglashning yangi bosqichga o'tishi, o'z-o'zini bilish, qabul qilish, tan olinish, muloqot va boshqalardan ajralib turish, o'z-o'zini baholash ehtiyojlarining kuchayishi kabi xususiyatlar bilan ham bog'liq bo'ladi.

**XULOSA**

Olib borilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yolg'izlik hissi odamning boshqalar tomonidan tushunilish, ular bilan hissiy yaqinlik va muloqotga bo'lgan ehtiyoj qondirilmasisligi natijasida yuzaga keladigan emotsiyonal kechinmadir. Yolg'izlik uch tarkibiy qismidan iborat: o'z yolg'izligini anglash (kognitiv komponent); salbiy hissiy kechinma (emotsional komponent); deprivatsion omilning mavjudligi, begonalashish (ijtimoiy komponent).

2. Talabalarda yolg'izlikning o'rta darajasi aniqlandi. Biroq yolg'izlik namoyon bo'lishida o'ziga xos mikroyosh dinamikasi aniqlanib, talabalar o'zlarini subyektiv yolg'iz his qilishlari, bu yoshda refleksiyaning rivojlanishi, o'z-o'zini anglashning yangi darajasiga o'tish, o'z-o'zini bilishga, qabul qilishga va tan olinishga bo'lgan ehtiyojlarning kuchayishi, muloqot va yakkalanish, o'z-o'zini baholash bilan bog'liq.

3. Talabalarda yolg'izlik hissi namoyon bo'lishidagi jinsiy tafovutlardan aniqlanishicha, talaba-qizlar va talaba-yigtarda yolg'izlik namoyon bo'lishida farqlar aniqlandi.

4. Talabalarga ichki begonalashuv kuchliroq bo'lib, bu muloqotdagi uquvsizlik xususiyatining yolg'izlik hissini keltirib chiqaruvchi omil ekanligini ko'rsatmoqda. Talabalarda muloqotchanlikning ortishi, ularni boshqalarning tushunishi va qabul qilishining ham ortishiga, aksincha, muloqotchanlik kamayishi esa ularda yolg'izlik hissi ortishiga olib keladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- Иванченко Г.В. (2008) Универсум одиночества: социологические и психологические очерки // Г.В. Иванченко, Н.Е. Покровский. - М.: Логос. - 424 с.
- Karimova V.M. (2012) Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya. - 172 b.
- Колесникова Г.И. (2015) Феномен одиночества: понятие, классификация, экзистенциальный смысл / Г.И. Колесникова // Фундаментальные исследования. - № 2. - С. 20-21.
- Mullaboyeva N.Sh. (2019) O'smirlarda yolg'izlik hissi shakllanishining psixoprofilaktikasi va psixokorreksiysi. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 19.00.06 / Mullaboyeva Nargiza Sharopaliyevna. – Toshkent. – 53 b.
- Rasulova N.Z. (2020) Qayta nikohga kirish motivatsiyasining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari 19.00.05 / Rasulova Naima Ziyautdinovna. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 23 b.
- Сабирова А.Б. (2009) Особенности субъективности и эмоциональной сферы человека на поздних этапах онтогенеза: Автореф.дис. ... канд. психол. наук. - Т., ТГПУ. – 22 с.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyyoyevning O'zbekiston yoshlari Forumida so'zlagan nutqi. 25 dekabr, 2020 yil.
- Yuldasheva M.B. (2022) Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 19.00.05 / Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna. – Toshkent. – 121 b.